



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
Nusharov Bobir Bolbekovich	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
Олимова Азиза Кахрамоновна	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Quدراتulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
Botirova Lobar Kamolovna	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqirishda integrativ usullardan foydalanish	73
Ergasheva Nigora Erkinovna	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
Baxramova O'ramol Uralovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
Ergasheva Mehriyona	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING TASVIRIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jummayeva Sayyora Shokir qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, maqsadi va vazifalari, tasviriy ko'nikmalarni shakllantirishning turlari hamda usullari, tasviriy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, faollik markazlarining o'rni, pedagog mahorati, tarbiyalanuvchilarning tasviriy ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi, sinov-tajriba natijalari va ularning tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchilar, tasviriy ko'nikma, shakllantirish, turlari va usullari, faollik markazi, pedagog mahorati, sinov-tajriba, intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, estetik.

Abstract: The theoretical foundations, goals, and objectives of developing visual skills in preschool educational institutions are presented in this study. The types and methods of developing visual skills, educational technologies that promote visual skill formation, the role of activity centers, pedagogical mastery, the level of visual skill development, as well as the results and analysis of experimental work are described.

Key words: preschool education, children, visual skills, development, types and methods, activity center, pedagogical mastery, experimental work, intellectual, moral-spiritual, physical, aesthetic.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы, цели и задачи формирования изобразительных навыков у воспитанников дошкольных образовательных организаций, виды и методы их формирования, образовательные технологии, способствующие развитию изобразительных навыков, роль центров активности, педагогическое мастерство, уровень сформированности изобразительных навыков, результаты опытно-экспериментальной работы и их анализ.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитанники, изобразительные навыки, формирование, виды и методы, центр активности, педагогическое мастерство, опытно-экспериментальная работа, интеллектуальный, духовно-нравственный, физический, эстетический.

KIRISH

Maktabgacha ta'limning bosh vazifasi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, shuningdek, bola shaxsini shakllantirish, uning bilimga qiziqishini, madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirish, ilmga muhabbat hissini tarbiyalash, ularda olam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish hamda salomatligini mustahkamlashdan iborat. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida ularning tabiatni va undagi hodisalarni estetik idrok etish malakalarini shakllantirib borish ham muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar uning pedagogik jihatlarini yangilashni, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar hamda ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar asosida takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunda, birinchi navbatda, jarayonning nazariy va amaliy asoslari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, yosh avlodning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor shaxs bo'lib yetishishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish hamda ta'lim mazmunini izchil taqdim etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun bog'cha va oilada ularning keng qamrovli faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu esa bolalarda atrof-olam hamda undagi voqea va hodisalarni anglash ko'nikmalarini tarkib toptirish vositasida ularning maktab ta'limiga tayyor bo'lishini, bu jarayonda lozim bo'ladigan sobitqadamlik, g'oyaviylik, o'rtoqlari va tengdoshlariga do'stona munosabat, ularni tushunish, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu borada keng imkoniyatlarga ega. Bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish hech qachon birdaniga amalga oshmagan. Bolalar rasmlarining dastlabki tadqiqotchilari – Korrodo Richchi, Liberti Tedd, M. Bexterev kabilar bolalar ijodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ta'kidlagan holda, ularni rasm ishlashga o'rgatishning zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o'rgatish g'oyasi birinchilardan bo'lib italiyalik san'atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, u bunday mashqlarsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyasi darajasida qolishi mumkinligini ta'kidlagan. Filadelfiyadagi badiiy ishlab chiqarish maktabining direktori, akademik Liberti Tedd qo'lning chaqqonligi va harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida qaragan. Uning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish hamda ko'plab faoliyat turlarida asqotadigan rassomlik mahoratini rivojlantirish uchun zarurdir.

Shularni e'tiborga olgan holda Liberti Tedd rasm chizishda qo'l harakatlari uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqqan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bu mashqlarni bolalar jondillik bilan bajaradilar. Bu mashqlar tizimida faqatgina geometrik shakllarni chizdirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki tabiiy unsurlarni tasvirlash orqali bolalarning ona tabiatga bo'lgan qiziqishi va kuzatuvchanligini rivojlantirish lozimligi ta'kidlanadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

O'z navbatida, boshqa ta'lim-tarbiyaviy ish bo'limlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlariga tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o'yini bilan bog'liqligi alohida ahamiyatga ega. O'yin bola hayotida katta o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli xil o'yinlar o'tkaziladi: mazmunli-rolli, dramatlashtirish, didaktik va harakatli o'yinlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday o'yin bolaga zavq bag'ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o'yin bilan bog'lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo'ladi hamda emotsional javobni uyg'otadi, bu esa bolalar ishlari sifatiga yaxshi ta'sir etadi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil, quvnoq muhit yaratiladi. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyat ko'nikma va malakalari samarali egallanadi. O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Rasm, loy, qirqib-yopishtirish ishlari o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg'otadi, o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha marta o'tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur. Bolaning hayotida syujetli-rolli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Syujetli-rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatiga qiziqishini oshiradi, bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilaydi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri – boshlangan ishni oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordam berish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Kollektiv ish yaratish jarayonida bolalarda bir-biriga yordam berish, kelishib ishlash kabi sifatlar shakllanadi. Ishni baholash jarayonida bolalarda o'rtoqlarining ishiga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishi va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish va tarbiyalash zarur, faqat navbatchilik orqali ayrim bolalarda emas, balki har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi.

Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi rang, ritm, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni va uning xilma-xilligini sezsa yoki aks ettira olsa, ular ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi ularda predmetga va uning ayrim sifat-

lariga nisbatan estetik baho berishga o'rgatadi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunish va ularga nisbatan his-tuyg'u hamda munosabat shakllanadi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodiy o'sishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy-ijodiy o'sishi obrazli fikr yuritish, estetik idrok etish va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka hamda ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalashi mumkin.

Bolalarni o'z ishini yanada chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish badiiy va axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy va qurish materiallari bo'yicha bilim hamda malakalarni egalash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga asos bo'ladi. Ular bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish o'quv faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish maktabda vazifalarni bajarishda ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi: qiziqish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va boshqalar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olingan malakalar bolalarning maktab hayotiga tezda moslashib ketishiga asos bo'ladi.

Tasviriy faoliyat – bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning qismi sifatida. Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulot turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining xarakteri o'zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar o'zlarining tevarak-atrofidagi narsa-hodisalar, badiiy asarlar va qo'shiqlardan olgan taassurotlarini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish-yasash ishlarining boshqa mashg'ulotlar hamda faoliyat turlari bilan bog'liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning samaradorligini oshiradi, bolalarning turli mashg'ulotlarga qiziqishini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u, badiiy did, shu bilan birga axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqish uyg'otishi zarur.

O'tayotgan jarayon bilan bog'liq bo'lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so'ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jonli, emotsional, ertakli, syurprizli elementlar bilan o'tilishi lozim. Ta'lim jarayonini yengil, bolalar sezmaydigan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar – o'yin, badiiy o'qish va hikoya qilish, musiqa va hokazo bilan bog'liqligini tizimli olib borish kerak. Dastavval rasm, loy va qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash zarur.

Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yosh guruhi bolalarida estetik did sekin-asta rivojlanib, takomillashib boradi. Ular badiiy asarlar va ularning ritmi, qofiyasi, rangi kabi elementlarini idrok eta boshlaydilar. Bola badiiy asarda tasvirlangan o'ziga tanish predmetlarni ko'rganida juda quvonadi va ularni tasavvuridan o'tkazishga harakat qiladi. Shu tariqa uning badiiy faoliyati asta-sekin oddiydan murakkablikka o'tib boradi. Ular nafaqat tasvirlashda, balki musiqiy faoliyatida ham oddiy malakalarni egallaydilar, bu esa ijodiy faoliyatining dastlabki alomatlarini sifatida namoyon bo'ladi. Bular bolada kichik yosh davridayoq badiiy faoliyatning estetik sifati shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'rta yosh guruhida idrok etish ancha rivojlanadi, uning aniqligi va xilma-xilligi namoyon bo'ladi. Bu davrdagi estetik idrok bolaning xususiy tajribasiga va qiziqishlariga asoslanadi. Endilikda bola badiiy obrazlarni estetik baholash, ayrim estetik vositalarni his qila olish, san'at asarlarining ma'nosini tushuna olish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi. Bolalar ashulani qora so'zdan, badiiy asar, musiqa va tasviriy san'at janrlarini bir-biridan farqlay oladilar. Ularda ijodkorlikka intilish aniq namoyon bo'la boshlaydi, bola raqsni, qo'shiq aytishni va sahna ko'ri-nishlarini obrazli tarzda ifodalay olishga o'rganadi.

Katta yosh guruhi bolalari musiqa va badiiy asarlarni quyi guruhlarga nisbatan diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini tasavvur qilish, ularni chuqurroq tushunish, yaxshilikka quvonish va yovuzlikka murosasiz bo'lish imkoniga ega bo'ladilar. Bu davrda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalari jadal rivojlanadi, topishmoqlar, qo'shiqlar, taqmoqlarni amalda qo'llaydilar, rasmlar chizadilar, applikatsiyalar bilan shug'ullanadilar. Bu yoshdagi bolalar nafaqat o'z ijodkorligiga, balki boshqalarning ijodkorligiga ham baho berish ko'nikmalarini egalaydilar. Bolalar endi san'at asarlarining faqat estetik sifatlarini tasavvur etibgina qolmasdan, balki ularning ma'no-mazmunini ham anglay oladilar. Bolalarda san'at asarlari va kundalik turmushda uchraydigan go'zallikka qiziqish shakllanadi. Badiiy ijodkorlik ko'nikmalari zarur darajada turg'un va aniq bo'lmasa ham, asta-sekin ko'zga tashlana boshlaydi.



XULOSA

Shu aytilganlardan kelib chiqqan holda, estetik tarbiya masalalarini chuqurroq tushunib yetish uchun uni to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

- estetik idrokni rivojlantirish, estetik emotsiyalar, hissiy tuyg'ular va munosabatlar hamda qiziqishlarni shakllantirish; elementar estetik ongni shakllantirish;
- estetik faoliyatni o'zlashtirish;
- estetik va badiiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya mazmuniga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bolalarning estetik faoliyatida amalga oshiriladigan estetik tuyg'u, qiziqish, talab, baholash va didni tarbiyalash kabi masalalar kiradi. Atrof-muhitni estetik idrok etish jarayonida bolalarda go'zallik to'g'risidagi bilimlar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiyaning barcha jabhalarini birgalikda amalga oshirish kelajagimiz bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari. – T.: Kvinta Print, 2012-y.
2. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T. Rasm, buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T.: "Sho'lpon", 2010-y.
3. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T.: "Musiqqa", 2010-y.
4. Komenskiy Ya. A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O'qituvchi, 1975-y.
5. Vigotskiy L. S. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.